



RAUF PARFI QO‘LYOZMA MATNLARINING TASNIFIY TAHLILI

Muallif: Go‘zal Matyoqubova Rajabovna ¹

Affiliyatsiya: O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti o‘qituvchisi, filologiyafanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20209215>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Rauf Parfi asarlari qo‘lyozmalarining tasnifiy tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, ular til, yozuv, shakl va janr jihatdan tasnif etilgan. Muallif nafaqat qo‘lyozma asarlar tasnifiga, balki shoirning kitoblari va qo‘llagan taxalluslarini ham tasnif qiladi.

Kalit so‘zlar: matn, qo‘lyozma, she‘r, tasnif, adabiyot, tahrir, tadqiq, ro‘yxat, taxallus, kitob, daftar.

XX asr o‘zbek adabiyoti tadqiq qilinar ekan, Rauf Parfi she‘riyatini misolida she‘rning, so‘zning maqomi naqadar ulug‘ darajaga ko‘tarilganini kuzatish mumkin.

Rauf Parfi boshlang‘ich va o‘rta ta‘limni “Sharq yulduzi”, Sho‘ralisoy, Yangiyo‘ldagi Alisher Navoiy maktablarida oladi. 1960 – 1965-yillarda Toshkent Davlat Dorilfununining(hozirgi O‘zMU) jurnalistika fakultetida tahsil olgan. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyotida muharrir, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi targ‘ibot markazida bosh muharrir, “Jahon adabiyoti” jurnalida yetakchi muharrir vazifalarida faoliyat yuritadi.

Shoirining she‘riyatdagi ilk ustoz Abdurahmon Vodiliy bo‘lgan. Rauf Parfi tomonidan tayyorlangan Abdurahmon Vodiliy qo‘lnashr kitobi so‘zboshisida shunday yozadi: “O‘zbek-turk ma‘naviy dunyosining tarixi hazrati muhaddislar, buyuk ulamolar, ulug‘ shoirlar ijodiyoti va hayotlarining muborak tarixi. Bu tarix – maqtullar, xo‘rlanganlar, unutilganlar tarixidir. Abdurahmon Vodiliy (1893 – 1963) hayoti asrimizning jaholat va chirkin davri – za‘faron yuzli kir tirnoqli yovuz lashkar, o‘rgimchak to‘riga o‘ralgan zamonaga to‘g‘ri keldi” [1:1].

Ma‘lumki, Rauf Parfi Abdurahmon Vodiliyshe‘rlarini 1993-yilda qo‘lnashr kitob ko‘rinishiga keltiradi, muqovalab, “Cho‘lpon” nashriyotida nashrga tayyorlaydi. Biroq qo‘lyozma nashr etilmagan, qo‘lkitob ko‘rinishida saqlanib qolgan. Rauf Parfining ustoziga bo‘lgan mehri, sharqqa xos ustoz-shogirdlik an‘analari uning ijodi va faoliyati timsolida o‘zgacha mazmun kasb etgan.

Rauf Parfi shoir, nosir, tarjimon sifatida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va Turkiya Diyonat Vaqfi mukofoti, xalqaro “Nilufar” mukofoti, Xalqaro Mahmud Koshg‘ariy mukofoti, Hamid Olimjon nomidagi Davlat mukofotlariga sazovor bo‘lgan. Shoir 1998-yilda O‘zbekiston xalq shoiri unvoni bilan taqdirlangan.

Bugungi kunda Rauf Parfining Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida 180 ta qo‘lyozmasi, shoir Chorsham‘ va farzanlarida 20 ta daftar, uning dastxati bilan yozilib, muqovalab tayyorlangan turli hajmdagi qo‘lnashr kitoblari

saqlanadi. Xususan, Rauf Parfi O'zturk taxallusidagi "Hukmnoma"ning 5 ta nusxasi va Abdurahmon Vodiliyning bitta nusxa qo'lnashr kitoblari mavjud.

1958-yili "Yangiyo'l" tuman gazetasida shoirning ilk she'ri chop etilgan. U kechki maktab tahsilini tugatib, 1960-yili Oliy o'quv yurtiga o'qishga kiradi. Shoir ilk tarjimalarini talabalik yillaridan e'lon qila boshlagan bo'lsa ham 20 ta daftarida yosh tarjimonning ilk tarjimalarini kuzatish mumkin. Masalan, 3-daftarning №1011 raqami ostidagi betida Tyutchevdan qilingan tarjimalari mavjud bo'lib, tarjimaning tagiga "12.3.59" raqami yozilib, yoniga T.Parfiy deb imzo chekilgan. Ushbu manba bilan tanishib, Rauf Parfi tarjimonlik faoliyatini judaertaboshlagan degan xulosaga kelish mumkin.

20 ta daftarda tarjimalarni, shuningdek, Rauf Parfi dastxatida ko'chirib yozilgan mashhur shoirlar she'rlari ham bor. Rauf Parfi jahon klassikasini – Aleksandr Blok, Isikava Takuboku, Fet, Nozim Hikmat, Gevorg Emin, Karlo Kaladze, Pablo Neruda, Muhammad Hodiy she'rlarini o'zbek tiliga tarjima qiladi. Turk dunyosi adabiyoti, turkiy xalqlarning tili, madaniyati, alifbosi birligi masalasi Rauf Parfi uchun hamisha o'zak masala bo'lib kelgan. Shoir do'stlari uchun "Turk dunyosi she'riyati" dasturini yozadi va bu dastur turkiy xalqlar adabiyotining, adabiy aloqalarining rivojiga zamin hozirlagan.

Shoirning chop etilgan kitoblarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Shoir tirikligida chop etilgan kitoblari.

Rauf Parfi hayotligida ko'p kitoblar tuzgan, tayyorlagan va ulardan 10 tasi chop etilgan. Bu kitoblar, quyidagilardan iborat:

1. "Karvon yo'li" (1969);
 2. "Aks sado" (1970);
 3. "Tasvir" (1973);
 4. "Xotirot" (1975);
 5. "Ko'zlar" (1978);
 6. "Qaytish" (1981);
 7. "Sabr daraxti" (1986);
 8. "Sukunat" (1991);
 9. "Sakina" (1995);
 10. "Tavba" (1999).
2. Shoir hayotligida tayyorlagan, lekin chop etilmay qolgan kitoblari oltita she'riy to'plamdan iborat: "Ona Turkiston" (1988), "O'limdan so'ng" (1989), "Turon diyori" (1990), "Turkiston ruhi" (1992), "Thakuriya" (1996), "Safar" (2001).
 3. Rauf Parfining o'limidan so'ng chop etilgan kitoblari quyidagilar: "So'nggi vido" (2006), "Sakina" (2013), "Saylanma" (2013), "Turkiston ruhi" (2013), Tanlangan asarlar (2021, Turkiya nashri), 1-2 jild, Saylanma (2022) 1-2 jild, "lymon asiri" (2023), "Hukmnoma" (2023).
 4. Rauf Parfi dastxatida muqovalab tayyorlangan, do'stlariga sovg'a qilingan qo'lnashr kitob nusxalari. Bunga "Hukmnoma"ning 5 ta nusxasi va ustoz Abdurahmon Vodiliyning g'azallaridan iborat qo'lnashr kitobni misol sifatida keltirish mumkin [2:1].

Rauf Parfi nasrda ham ijod qilgan bo'lib, hikoyalar yozgan, ular shoirning o'limidan keyin chop etilgan nashrlarda o'z ifodasini topmoqda. Nega Rauf Parfi hayotligida bu hikoyalarni chop etmagan, degan savol tug'iladi. Chop etilgan nasriy asarlarning ayrimlarida yozilgan sanalari ko'rsatilgan:

- "Yolg'iz" hikoyasi – 08.06.1966;
- "Xatna" hikoyasi – 09.06.1966;
- "Uchrashuv" hikoyasi – 11.02.1967;
- "Qayg'u" etyud – 07.12.1967.

Rauf Parfi qoldirgan nasriy merosning qolgan qismida yozilgan sanalari ko'rsatilgan emas. Bir jihatga e'tibor qaratish mumkinki, hikoyalarning aksariyati

ijodkorning ilk ijod namunalari e'lon qilina boshlagan pallalarlarda yozilgan. Biroq Rauf Parfi tirikligida birorta hikoyasini adabiy jamoatchilik hukmiga havola qilgan emas. Muallifning bu uchun ma'lum asoslari bo'lgan bo'lishi mumkin.

Chorsham' tuzgan "Rauf Parfi O'zturk hayoti va ijodining tadrijiy sanalari"da shoir 2002–2005-yillar oralig'ida "Muhojir" nomli roman ustida ishlagani haqida ma'lumot bor[9:1]. Lekin bu roman Rauf Parfining keyingi yillar davomida chop etilgan kitoblaridagi nasriy asarlari qatorida e'lon qilingan emas. Bunga turli xil farazlar bor:

- roman o'quvchi hukmiga havola qilish darajasida bo'lmay, struktura va mazmun jihatdan pishib yetilmagan;
- asar tugallanmagan;
- romanni ijodkor umuman yozmagan, faqat shoirida shunday roman yozish rejasi bo'lgan bo'lishi mumkin.

Albatta, shoir arxivi o'rganilish jarayonida, undagi qo'lyozmalarni adabiy jamoatchilikka havola etishda asarlarning badiiy-estetik xususiyatlariga alohida e'tibor qaratish zarurati seziladi.

Rauf Parfi asarlarini e'lon qilishda bir qancha taxalluslarni qo'llagan. Ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

- M.Parpiyev. Bu taxallusni shoir 1955-yildan 1959-yilgacha bo'lgan she'rlarida qo'llagan. Shoir Chorsham'da saqlanayotgan 1–3 daftardagi dastlabki hamma she'rlarga shu taxallus (ism – familiya – izoh G.M.) qo'llangan.
- M.Tursun. Bu taxallus 1956-1958-yillarda yozilgan she'rlarida qo'llangan bo'lib, bu taxallus bilan imzo chekilgan she'rlar 3-daftardan o'rin olgan.
- Chaqmoq taxallusi. Bu, asosan, 1958-1959-yillarda yozilgan she'rlarida saqlangan, 4-daftardagi she'rlar ostiga shu taxallus qo'llanilgan.
- T.Parfi. Bu taxallus esa 1959-1960-yillar oralig'ida she'rlarda qo'llangan va ular 5-6-7 daftarlardagi she'rlar shu tarzda imzolangan.
- Rauf Parfi. Bu taxallus 1960-1961-yillarda yozilgan she'rlarida ko'rina boshlagan. 8-daftardagi she'rlari pastiga Rauf Parfi taxallusi qo'yilgan.
- Rauf Parfi O'zturk. Uba'zi she'r va qo'lnashr kitoblariga "Rauf Parfi O'zturk" taxallusini qo'llagan. Xususan, "Hukmnoma"ning qo'lnashr ko'rinishida bu taxallusni ko'rish mumkin.

Rauf Parfining Davlat adabiyot muzeyida saqlanayotgan arxivi bugungi zamonaviy arxivshunoslik, matn va manba o'rtasida aloqaning izchilliginio'zida namoyon etadi. Qo'lyozmalar ko'zdan kechirilar ekan, asar yaratishning dastxat ko'rinishi yo'qolib yoki kamyoblashib borayotganligi, natijada arxivshunoslik masalalari tor qobiq ichiga kirib borayotganini kuzatish mumkin. Binobarin shoirning dastxati, matn ustida ishlash uslubi, qiyosiy matn degan istilohlarimiz tobora ilmiylug'atshunoslikda o'zining iste'mol doirasini saqlab qolish ehtimoli ko'proq ekanligi ayon bo'ladi. Texnik taraqqiyot bois, kompyuter ijodkor asarlarining texnik dastxatiga aylanmoqda. Natijada yaqin kelajakda shoir qo'lyozmasidagi asarni topish, ilmiy tavsif qilish, ilmiy-qiyosiy va ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlash imkonsiz bo'lib qolish ehtimoli yo'q emas.

Ushbu arxiv juda boy va rang-barang bo'lib, Rauf Parfi ijod laboratoriyasi, ishlash prinsiplari, matn jozibasi, badiiy matnga munosabati va uning ustida pishiq ish olib borganidan dalolat beradi. To'g'ri, Rauf Parfining qo'lyozmalari sochilib ketgan, bir joyda jamlangan emas. Chunki qo'lyozmalarning bir qismi shoirning

qarindoshi Chorshamda, bir qismi turmush o'rtog'i Sulhida Yolg'izda va yana bir qismi qizi Munojotda ekanligi ishni biroz murakkablashtiradi. Shuningdek, shoirning yana bir qancha qo'lyozmalari boshqa shogirdlari, do'stlari qo'lida saqlanayotgani ham ma'lum. "Shoir xalqi dunyoning to'rt tomoniga sochilib ketgan millat" qabilidagi fikr ushbu o'rinda o'z ifodasini topganki, Rauf Parfining qo'lyozmalari ham O'zbekistonning to'rt tomoniga sochilib ketgan ma'naviy obidalar ekanligi ayon bo'ladi.

Albatta, Rauf Parfi asarlari qo'lyozmalarining turli qo'llarda saqlanayotganligi, shoirning ba'zi qo'lyozmalari bilan tanishishda dastxat nusxa emas, ko'paytirilgan nusxalardan o'rganish va tadqiq etishni taqazo etmoqda. Rauf Parfining 2022-yilda chop etilgan ikki jildlik "Saylanma"sida nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi Olim Oltinbekning ma'lumotiga ko'ra, shoirning sobiq rafiqasi Xurshida Mamatovada asarlarining 49 ta qo'lyozmasi saqlanadi. Shoir arxiviga tegishli bo'lgan har qanday qo'lyozmaning bir joyda to'planishi bundan keyingi tadqiqotlarda qulaylik baxsh etgan va qo'lyozmalarning yangi qirralarini namoyon etishga xizmat qilgan bo'lur edi.

Ushbu tadqiqotda shoir Rauf Parfining o'z dastxati bilan yozilgan 20 ta daftari nusxalari, Baxtiyor Isabekov shaxsiy kutubxonasida saqlanayotgan Abdurahmon Vodiliy she'rlarining Rauf Parfi dastxati bilan yozilib, muqovalab tayyorlangan qo'lnashr kitobi, "Hukmnoma"ning mashinkada pechatlab, Rauf Parfining o'zi tomonidan tayyorlangan qo'lnashr kitoblari asos bo'ldi.

Rauf Parfi asarlari qo'lyozmalari o'rganilar ekan, qo'lyozmalarning holati, tahrirlar, bir she'rning bir necha xil nusxalaridagi tafovut va nomuvofiqliklar, varaqdan-varaqqa ko'chgandagi o'zgarishlar, asarlarning janr xususiyatlari, shoir qo'lyozmalaridagi imzo va sanalariga alohida e'tibor qaratildi. Albatta, shoirning mashinkada pechatlab yozilgan she'rlari orasida bir she'rning bir necha xil variantlari borki, ular hamma nusxada bir xil ko'rinishga ega bo'lgan.

Ushbu tadqiqot jarayonida qo'lyozmalardagi konkretlikka, to'g'rilikka, matniy pishiqlikka va shoirning o'zi tirikligida o'z qo'li bilan tayyorlagan kitoblardagi ("Sakina" kitobidagi– izoh G.M.) she'rlarga tayanch manba sifatida qaraldi.

Rauf Parfi arxiviga tegishli bo'lgan manbalarni shakl jihatdan quyidagicha tasniflash mumkin:

- Rauf Parfining o'z dastxatida yozgan she'r va tarjimalari;
- Rauf Parfi arxivida saqlanayotgan asarlarning mashinkada ko'chirilgan nusxalari;
- Rauf Parfi arxivida saqlanayotgan boshqa ijodkorlarga tegishli bo'lgan ijod namunalari;
- Rauf Parfi she'rlarining o'zbek tilidan rus tiliga o'girilgan tarjima nusxalari;
- Rauf Parfining o'zi tomonidan amalga oshirilgan tarjima asarlar;
- Rauf Parfi haqidagi xotiralar;
- Rauf Parfi asarlariga tegishli bo'lgan ro'yxat va mundarijalar;
- Rauf Parfi she'rlari e'lon qilingan gazetalardan qirqimlar;
- nutqlar, maqolalar, xatlar;
- Rauf Parfining ota-onasi, rafiqalari, farzandlari va do'stlari bilan turli yillarda tushgan fotosuratlar;
- Rauf Parfi vafoti munosabati bilan yozib olingan disk.

Bu tartibda tasniflash qo'lyozmalar ustida ishlashda qulaylik tug'diradi va umumiy xulosalarga mazmun bag'ishlaydi, matnning sirlilik xususiyatlarini biroz yengillashtiradi va matnning sir pardasi ko'tariladi.

Rauf Parfi asarlarini janr xususiyatlaridan kelib chiqib quyidagicha tasnif qilish mumkin:

- she'rlari (bunga she'rlari, she'riy tarjimalari, turkumlari, sonetlari va she'riy janrda yozilgan boshqa asarlari kiradi);
- publisistik maqolalari;
- nutqlari;
- maktub va qaydlari.

Rauf Parfi qo'lyozmalarini til nuqtayi nazaridan quyidagicha tasniflash mumkin:

- o'zbek tilida yozilgan asosiy qo'lyozmalar(she'rlar, g'azallar, tuyuqlar, maqolalar, xatlar, nutqlar, matnlar va gazeta qirqimlari);
- Rauf Parfining rus tilidagi she'rlari(Viktor Sosnora va Yu.Lasskiy tomonidan tarjima qilingan she'rlari rus tilida berilgan);
- Rauf Parfi tomonidan ko'chirib yozilgan rus shoirlarining rus tilidagi she'rlari va shoir she'rlariga rus tilida olingan iqtiboslar;
- she'rlarga ingliz tilida olingan iqtiboslar (she'riy parchalar).

Rauf Parfining qo'lyozma asarlarining yozuv nuqtayi nazardan quyidagicha tasniflash mumkin:

- kirill alifbosida yozilgan she'rlar, matnlar(bular arxiv qo'lyozmalarining asosiy qismini tashkil qiladi);
- lotin alifbosida yozilgan matnlar, she'rlarga keltirilgan iqtiboslar;
- turkcha alifboda yozilgan shoirning yagona she'r qo'lyozmasi[3:1].

Rauf Parfi arxivining asosiy qismini she'rlar tashkil etadi. Ular o'zbek zamonaviy she'riyatini shakl, ma'no va uslub jihatdan tamoman yangi bosqichga ko'targan she'rlar deyish mumkin. Amerikalik professor Reychel Harell aytmoqchi, Rauf Parfi hamma ko'nikkan an'anaviy va sofmodern she'riyat an'alarini birnuqtada uyg'unlashtira olgan, o'zbek she'riyati boy mumtoz tajribalarini novatorlik bilan sintezlashtirgan shoir sifatida ko'rilmog'i va o'rganilmog'i kerak.

Rauf Parfi o'z she'riyatining tub ildizlarida jahon she'riyatning eng boy an'alarini o'ziga singdira oldi. Bu **jihatdan Rauf Parfi she'rlari qo'lyozmalarini shakl va ma'no jihatdan** quyidagicha tasniflash to'g'ri bo'ladi:

- Rauf Parfining mumtoz adabiyot zamiridagi izlanishlari. Bularga shoirning Alisher Navoiy, ustoz Abdurahmon Vodiliy, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon g'azallariga bog'lagan muxammaslarini hamda klassik adabiyot an'analari yo'lida bitilgan tuyuqlari kiradi.
- Yevropa va rus she'riyati an'alarini o'zida sintez qilgan she'rlari. Bunga shoir ijodining boshlang'ich davridagi she'rlari va sonetlarini kiritish mumkin.
- Jadid va turk she'riyati ohanglari, g'oyalari va boy tajribalarini o'zida mujassam etgan asarlari. Bularga shoir she'riyatining asosiy qismini kiritish mumkin bo'ladi.
- Yapon she'riyati an'alariga xos bo'lgan xokku va tankalar shakl va mazmunini o'ziga jo etgan ikkiliklar, uchliklar, to'rtlik va beshliklari. Bularni qaysidir ma'noda shoirning qiziqishi bilan bog'liq eksperimentlar, deb qarash mumkin.

Shoirning 20 ta daftarida ijodining ilk davriga tegishli bo'lgan she'rlar bor. Shularni nazarda tutgan holda shoir **boy ijodiy merosidagi asarlarning yaratilgan paytlarini davrlashtirish va ularni quyidagicha tasniflash mumkin:**

- Shoir ijodining ilk bosqichlarida yaratilgan she'rlar. Bular 1954-yildan 1962-yilgacha bo'lgan davrlarni o'z ichiga oladi. Bu davrga 1–13 daftardagi she'r va tarjimalarni kiritish mumkin. Bu davr shoir uchun izlanish davri deb belgilanib, bu bosqichda rus adabiyotining turli shoirlaridan qilingan tarjimalarni uchratish mumkin. **(1954–1962-y.y.)**
- Ikkinchi davr 1962-yildan to 1991-yilgacha bo'lgan davrda yozilgan she'rlarni qamrab oladi. Bu davr, shoir ilk she'rlarining og'izga tushishi, adabiy jamoatchilik o'rtasida tanilishi uchun zamin bo'lgan davr hisoblanadi. Bunga 14-daftardan 20-daftargacha bo'lgan she'rlarni kiritish mumkin. **(1962 – 1991-y.y.)**
- Uchinchi davr shoirning mustaqillik yillaridan keyin tohayotining so'ngigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan qo'lyozmalarining yaratilgan davri. Bu davrga mansub qo'lyozmalarining aksariyat qismi Adabiyot muzeyi fondida saqlanadi. **(1991 – 2005-y.y.)**

Shoir daftarlari va qo'lyozmalari ichida juda ko'p ro'yxatlarga duch kelinadi. Bular **1-daftardan to 20-daftarga qadar 63 ta ro'yxatni** tashkil etadi. Ushbu ro'yxatlar shoirning o'zbek va jahon adabiyoti ustida tizimli va malakali ish olib borganidan dalolat beradi. Ro'yxatlarni shoir o'ziga ma'lum bir eskartma yoki reja uchun tuzgan bo'lishi mumkin. Bu ro'yxatlarni quyidagicha tasniflashni lozim topdik:

- o'zbek shoir va yozuvchilarining ism-shariflaridan iborat ro'yxatlar;[4:1]
- rus shoirlarining ism-shariflaridan tartiblangan ro'yxatlar;[5-1]
- jahon klassik ijodkorlari nomlari qayd etilgan ro'yxatlar;[3:146]
- shoirning o'z she'rlarining nomlari yozilgan ro'yxatlar;[3:3],[3:4], [3:5]
- Nozim Hikmatning o'zbek tilidagi asarlari ro'yxati;[6:1]
- shoir va yozuvchilarning ismlari aralash berilgan ro'yxatlar;[5:55], [5:56], [5:57], [5:58], [5:59], [5:60]
- Erkin Vohidov kitoblarining nomlari keltirilgan ro'yxat;[3:147]
- muallifning gazeta va jurnallarga berilgan asarlari ro'yxati;[7:1]
- yozilishi kerak bo'lgan matnlar ro'yxati.[8:1], [8:4]

Bular orasida eng katta ro'yxat, shoir va yozuvchilarning ismlari va kitoblarining nomlari o'rin olgan ro'yxat bo'lib, u 6 ta qo'lyozmada aks etgan. Unda O'zbekiston va jahonning eng mashhur shoir-yozuvchilari asarlarining nomlari o'rin olgan. Yozilishi kerak bo'lgan matnlar ro'yxati esa Rauf Parfiyning yoshlik davri, ya'ni ijodiy mashqlarini boshlagan dastlabki yillariga tegishli bo'lib (1955-yil – izoh G.M.), unda yosh shoirning yozish kerak deb rejalashtirgan she'rlarining taxminiy nomlari berilgan.

Ma'lumki, shoir yashab ijod etgan yillarda elektron kutubxonalar, adabiy saytlar rivojlanmagan edi. Xohlagan paytda istalgan adabiyotni internetdan olib o'qish imkoni bo'lmagan. Rauf Parfi arxividagi ro'yxatlar, shoirning o'zi uchun belgilab qo'ygan muhim vazifalari bo'lgani holda, shoirning ijodiy takomilida muhim ro'l o'ynagan. Shoir bevosita o'qigan yoki o'qishi zarur bo'lgan dunyo va o'zbek adabiyoti durdonalarining nomlarini ro'yxat shaklida shakllantirganki, shoirning ijodiy potensialida alohida ahamiyatga ega. Rauf Parfi arxividagi ro'yxatlar asosida O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga mutolaa uchun qat'iy adabiyotlar ro'yxatini taqdim etish mumkin. Bu yo'nalishda Rauf Parfi arxivida mavjud bo'lgan ro'yxatlar asos qilib olinsa, foydali ish bo'ladi.

Rauf Parfi ijodi XX asr she'riyatiga xos bo'lgan eng boy va go'zal poetik izlanishlarini o'zida jamuljam etgan she'riyat hisoblanadi. Rauf Parfi qalban va hissan jahoniy shoir bo'lgani holda uning ilk ijod namunalari dayoq rus klassikasining oltin va kumush davriga mansub adabiyotlarni puxta va mukammal o'rgangani anglashiladi. Bu jihat Rauf Parfi she'riyatining doimiy yangilanish omillarini belgilab bergan.

Ikkinchi jihat, Rauf Parfining she'rlarida, yozgan maqolalarida jadidchilik g'oyalari izchilligi kuzatiladi. Ulug' turkiy xalqlar birligi g'oyasi, turkiy millatlarning til, urf-odatlar, milliy qadriyatlar haqidagi orzu-istaklarining mukammallashgan va yaxlitlashgan ko'rinishi Rauf Parfining har bir asarida yarqirab aks etadi.

Rauf Parfi ijodining o'rganilishida bitta jihatga – hammaga ma'lum haqiqatlarni yuzaga olib chiqishgacha bo'lgan tadqiqotlar asosiy o'rinni egallaydi. Rauf Parfi ijtimoiy, madaniy va adabiy hayotda oqim bo'ylab harakatlanmagan bo'lsa ham aynan uning ijodi bo'yicha qilingan tadqiqotlarning aksariyatida umumiy va samarasiz tahlillarga o'rin berilganini kuzatish mumkin. Buning oqibatida Rauf Parfi she'riyatining tagzamidagi ma'no noto'g'ri interpretatsiya qilingani, germeneytik va uslubiy tahlillar yetishmasligi kuzatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Водилий А. Шеърлар. Қўлёзма китоб. Бахтиёр Исабек шахсий архивидан. – Б. 4.
2. Парфи Р. Хукмнома. Adabiyot Manzaralari Jurnalі саҳифаси. Facebook.com. тармоғи. – 2023. 25-апрель.
3. Парфи Р. 19-дафтар. №140, №146, №36 №4, №5, №147 рақамли қўлёзмалар. Чоршамъ Рўзиев шахсий архиви.
4. Парфи Р. 3-дафтар, № 1047, №и1048 қўлёзма. Чоршамъ Рўзиев шахсий архиви.
5. Парфи Р. 4-дафтар, № 55, №56, №57, №58, №59, №60 қўлёзмалар. Чоршамъ Рўзиев шахсий архиви.
6. Парфи Р. 14-дафтар, № 1068 қўлёзма. Чоршамъ Рўзиев шахсий архиви.
7. Парфи Р. 12-дафтар, № 55 қўлёзма. Чоршамъ Рўзиев шахсий архиви.
8. Парфи Р. 1-дафтар, № 41 қўлёзма. Чоршамъ Рўзиев шахсий архиви.
9. Чоршамъ. Абадият қўшиғи. – Тошкент: Турон замин зиё, 2017. – Б. 70.